

BOSH QOMUSIMIZDA MIRANDA QOIDASI VA UNING PSIXOLOGIK
TOMONLARI

Saburov Alisher Ikramovich

Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tингловчиси, mayor

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali mamlakatimizda inson huquqlari erkinliklari kafolatlanganligi shaxsga protsessual jarayonlarda huquqlari qonuniy manfaatlari tushuntirilishi lozimligi bu konstitutsiyamizda ham o'z tasdig'ini topganligini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Miranda qoidasi, Miranda shaxsi, Referendum, Psixonaliz nazariya.

Barchamizga ma'lumki yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda insonning huquqlari erkinliklari qonuniy himoya qilinishining samaradorligi yanada mustahkamlanishi ta'kidlangan. Miranda qoidasi bu jarayonda o'ta muhimdir.

"Miranda qoidasi" (ingl. Miranda warning) - Vakolatli davlat organi xodimi tomonidan ushlanayotgan shaxsga (gumonlanuvchi, ayblanuvchi) uning sukut saqlash huquqini va shaxs tomonidan aytgan har bir so'zi yoki hatti-xarakati sudda unga qarshi ishlatalishi mumkinligi haqida tushuntirish ogohlantirish hisoblanadi. Bu konstitutsiyamizning 27-moddasida o'z ifodasini topgan.

"Miranda qoidasi" Ernest Arturo Miranda nomi bilan bog'liq. AQShning Arizona shtati police tomonidan Ernest Arturo Mirandani bir necha jinoyatlarni sodir etganlikda gumon qilib, xibsga olgan. Mirandaga so'roq qilinishidan oldin uning gumonlanuvchi tariqasida huquqlari tushuntirilmagani bois, u o'z huquqlarini bilmagan holda aybiga iqrorligini bildirgan. Uning bu ko'rsatuvidan esa uning aybi iqrorligini isbot sifatida foydalanilgan va sudlangan. Shundan so'ng, uning advokati sudga appellatsiya kiritgan, Sud esa Miranda o'z huquqlaridan habardor qilinmagan deb topib, uning foydasiga oqlov hukmini e'lon qilgan va Miranda jazodan ozod qilingan. Sud qaroridan yuzaga kelgan norma esa dastlab AQSH amaliyotida "Miranda huquqlari" so'ng esa xalqaro huquqda "Miranda qoidasi" deb nom olgan. Hozirda, xalqaro huquq normasi o'laroq, dunyoning juda ko'p davlatlarida qo'llaniladigan qoida. Psixologik Tomoni shundan iboratki, gumonlanuvchi shok holatida bo'lsa ushbu jarayonda sukut saqlash huquqiga egaligi. Birinchidan, bu o'rinda sukut saqlash huquqi haqida to'xtalish lozim. Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksning 23-moddasiga muvofiq, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas. Boshqacha aytganda, milliy qonunchiligidan sukul saqlash yoki hech qanday ko'rsatma bermaslik huquqi aybsizlik prezumptsiyasi tamoyiliga asoslangan. Bu gumonlanuvchining eng avvalo shaxs sifatidagi qarashlari inobatga olinganligidan dalolat beradi.

Sukut saqlash huquqi, ya'ni o'ziga nisbatan qo'yilgan gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to'g'risida ko'rsatuvlar berishdan bosh tortish huquqi Jinoyat-protsessual kodeksning 48-moddasida qat'iy kafolatlangan.

Ushbu modda talabiga ko'ra, gumon qilinuvchi zimmasiga ko'rsatuv berish, shuningdek o'zining jinoyatga aloqador emasligini yoki ishning boshqa biror holatlarini isbotlash majburiyati yuklanishi mumkin emas.

Ikkinchidan, milliy qonunchiligidan mustahkamlangan shaxs tomonidan aytilgan har bir so'z yoki xatti-harakat sudda unga qarshi ishlatalishi mumkinligi haqida ogohlantirilish huquqi bilan "Miranda qoidasi" mazmunan o'zaro yaqindir.

Jinoyat-protsessual kodeksning 46-moddasiga asosan, shaxs o'zining ko'rsatuvalaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lishi va nimada ayblanayotganligini bilish huquqiga egadir. Shuningdek, mazkur moddada shaxsga o'zining aybdor emasligini yoki ishning boshqa biror holatlarini isbotlash majburiyati yuklanishi mumkin emasligi kafolatlangan.

Kodeksning 46 va 48-moddalariga ko'ra, shaxs, ya'ni ayblanuvchi yoki gumondor o'ziga qo'yilgan ayblov yo gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to'grisida ko'rsatuvalar berish yoxud ko'rsatuvalar berishdan bosh tortishga haqlidir. Shuningdek, u ko'rsatuvalaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lish huquqiga ega. Miranda qoidasi konstitutsiyamizda o'z tasdig'ini topish jarayonida ekspertlar fikri quyidagicha bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «Miranda qoidasi» va «Xabeas korpus» tamoyillari aks etishi kutilmoqda. Ushbu kutilayotgan yangilik o'zbekistonliklar hayotida nimalarni o'zgartirishi mumkin? «Miranda qoidasi» nima? Uning asosiy Qomusimizda paydo bo'lishi inson huquqlarini qanchalik kafolatlaydi? Ushbu savollarga O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori G'ulomjon Hakimov va mazkur universitet dotsenti Dildora Yusupova O'zAga bergen intevyusida atroflicha javob berdi:

- Shavkat Mirziyoyev konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda «Miranda qoidasi» va «Xabeas korpus» tamoyillarini Konstitutsiyada aks ettirish kerakligini ta'kidlagach, aholi orasida mazkur tamoyillarning mazmuniga qiziqish ortdi. «Miranda qoidasi»ning mohiyati va kelib chiqishiga to'xtalsangiz.

G'ulomjon HAKIMOV: - Qoida amerikalik jinoyatchi Ernesto Arturo Miranda nomi bilan bog'liq. U AQSH Oliy sudi tomonidan 1966 yilda jinoyat sodir etishda gumonlanuvchilarining o'ziga-o'zi qarshi guvohlik berib qo'ymasligini ta'minlash maqsadida kiritilgan. 1968 yilda bu shaxs tovlamachilik va nomusga tegish jinoyati bilan qo'lga olingan. So'roqdan so'ng Miranda o'ziga qo'yilgan ayblovlarga iqror bo'lib, so'roq bayonnomasiga imzo chekadi. Bayonnomaning har bir sahifasida «Bu bayonnomaga o'z ixtiyorim bilan imzo chekdim, hech kim meni majburlamadi, hech qanday tahdid qilmadi. Menga men tomonimdan bildirilgan har qanday bayonot o'zimga qarshi ishlatalishi mumkinligi va boshqa huquqlarim tushuntirildi», degan yozuvlar bo'lgan. Lekin eng diqqat qiladigan tomoni, bu huquqlarni hech kim Mirandaga og'zaki tushuntirib bermagan.

Mirandaning advokati Elvin Mur sudda Mirandaning haq-huquqlari talab darajasida tushuntirilmagan, shuning uchun aybiga iqrorlik bilan bog'liq barcha dalil va ko'rsatmalar ishdan chiqarilishi lozim, degan vajni ilgari suradi. Ish AQSH Oliy sudigacha yetib borgach, «Mirandaning huquqlari buzilgan» deb hisoblanib, ishdan Mirandaning ko'rsatmalarini chiqarib tashlash va ishni qayta ko'rish uchun qaror chiqaradi.

Mazkur pretsedent 1966 yildan AQSH jinoyat protsessiga yangi institut – birinchi o'rinda gumonlanuvchining haq-huquqlari tushuntirilishi shart ekanligini nazarda tutuvchi «Miranda qoidasi»ning kiritilishiga sabab bo'lgan.

- Mazkur pretsedentning asosi nimadan iborat?

- Asosiy tushuncha jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchi shaxs ushlanganda, qonuniy haq-huquqlari unga tushuntirilishi kerak. Agar gumonlanuvchiga bu haqda og'zaki tushuntirish berilmasa, gumonlanuvchi aytgan har qanday so'z yoki so'roq paytida olingan har qanday ko'rsatma dalil sifatida tan olinishi mumkin emas.

- Biror shaxs hali aybi isbotlanmay ushlangan vaqtida uning qanday huquqlari mayjud bo'ladi?

- Bunday holatda gumonlanuvchi gapirishga majbur emas. Huquq posboni «Qani gapir, nega buni o'g'irlading, qayerdansan, isming kim» singari savollarga miq etmay turaverishi mumkin. So'roq payti bo'lsa, boshqa gap. Lekin rasman so'roq boshlanmaguncha, g'ing demay turaverish mumkin. Hatto, so'roq paytida ham shaxsni savollarga javob berishga majburlash mumkin emas. Gumon qilinuvchining o'rniga uning advokati gapiradi, dalillar tilga kiradi.

Jinoyat qonunchiligidagi shunday qoida bor: shaxs o'zining aybsiz yoki aybdor ekanligini isbotlashga majbur emas. U umuman hech qanday harakatsiz jum o'tirishi mumkin. Uning aybini politsiya isbotlashi lozim va bu uning majburiyatidir. Yeladi-yuguradi, dalillarni yig'adi, guvohlarni topadi va h.k. Hatto, shaxs o'z aybini bo'yniga olib, «Men odam o'ldirdim», deb politsiyaga kelganda ham, chindan shu odam o'ldirganmi yoki boshqami, politsiya uni ham isbotlashi kerak. Psixologik holat gumonlanuvchining ruhiyatiga ta'sir qilmaslik jarayonlari samarali va muhimdir. Chunki konstitutsiyamiz bosh qomusimiz insonning shani har narsadan ustun ekanligini fodalaydi.

FOYDALANILDAN DABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)
2. O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi konstitutsiyasi
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.04.1997 yildagi 402-I-son
4. Kun.uz,Qalampir.uz.Daryo.uz UZA nashrlari
5. «Taraqqiyot strategiyasi» markazi 2019-yil 16-avgust
6. Jurnalistika etikasi va standartlari
7. Inson huquqlari.uz
8. Jurnalistlarda kasb etikasi
9. Xorijiy referendum nashrlari
10. Insonni himoya qilish kafolatlari